

**FARG‘ONA VODIYSIDA O‘SADIGAN TEMIRTIKAN O‘SIMLIGINING
KIMYOVIY TARKIBINI O‘RGANISH VA XALQ TABOBATIDA
ISHLATILISHI.**

Mamatqulova Surayyoxon Abdusamatovna

Farg‘ona davlat universiteti, kimyo fanlari

bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Xoldarov Ilyosjon Ibroximjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti, tayanch doktarant

E-MAIL: ilyosbekxoldarov7710@gmail.com

O‘zbekiston hududi o‘simlik olamiga boy va ulardan oqilona foydalanish imkoniyatlari kengdir. Fiziologik faol moddalar o‘rtasida alkaloidlar katta ahamiyatga ega, chunki ular turli strukturaviy tuzilish va yuqori fiziologik faollikka ega. O‘simlik moddalarining kimyoviy tuzilishi va biologik faolligini o‘rganish bir tomondan kimyonni rivojlantirib, unda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan zamонавиy samarali dorivor vositalarning yaratilishi va tibbiyat amaliyotiga tadbiq etilishiga asos bo‘ladi.

O‘simlikning nomi. *Tribulus terrestris* - Yer bag‘irlab o‘sadigon o‘simlik (*temirtikan*).[1]

Oilasi. *Zygophyllaceae* - tuyatovondoshlar. *Temirtikan* bir yillik o‘t o‘simlik bo‘lib, uzunligi 1 ba’zi 3 m largacha etadigan va yer bag‘rilab o‘sadigan o‘simlikdir. o‘simlik asos qismidan boshlab shoxlangan, tukli. Mevasi - pishganda besh (yoki 2 - 4) ta yulduzsimon joylashgan uchburchak - panasimon, qattiq 2 - 4 tikanli yong‘oqlarga ajraladigan quruq to‘p meva. o‘simlik may - iyun oylarida gullaydi, iyun - iyulda mevasi pishadi. “*Tribulus terrastris*”[1]

Geografik tarqalishi. o‘rta Osiyo, Hindiston, yevropa Qozog‘iston, Rossiyaning janubi, Qrim va Kavkaz dasht, cho‘llar,[2] tepaliklarda, soylarda daryolarning qirg‘oklarida, temir yo‘l, yo‘l yoqalarida, iflos va boshqa yerlarda o‘sadi. Lekin men bu o‘simligimni o‘zim yashaydigon hudud Farg‘ona viloyatidagi *temirtikan* o‘simligini o‘rgandim.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida steroid saponinlar, alkoloidlar (garman va boshqalar), flavonoidlar, vitamin C, bo‘yoq, oshlovchi va boshqa moddalar, mevasida 5 % yog‘ bo‘ladi.

Tadqiqot ishining maqsadi, Farg‘ona vodiyida o‘suvchi tribulus terrastris o‘simligi tarkibidagi makro-va mikro elementlar miqdorini o‘rganishdan iborat edi.

Nº	Elementlar	mkg/gr
1	Mn	61
2	Na	260

3	K	35400
4	Sm	0.092
5	Mo	0.5
6	Lu	0.0036
7	U	0.064
8	Yb	0.038
9	Au	0.0018
10	As	0.33
11	Br	48
12	Ca	14300
13	La	0.86
14	Ce	1.1
15	Se	0.15
16	Hg	0.016
17	Tb	0.015
18	Th	0.19
19	Cr	2.4
20	Hf	0.092
21	Ba	120
22	Sr	73

Ko‘rinib turiptiki eng yutuqli jihatlaridan biri bu lantanoidlarni ham borligi hisoblanadi.

Steroid saponinlar yig‘indisidan dioscin, 2% diosgenin, gitogenin, gracillan va boshqalar so‘f holda ajratib olingan.

Xalq tabobatidagi ahamiyati va ishlatalishi. Bu o‘simlikni damlamasidan siydk yo‘li kasalliklarini davolashda, immunitetni oshiruvchi vosita sifatida keng qo‘llaniladi.[3] Ishlatishda uni oz miqdorda bir osh qoshiq maydalanganidan olib 500 ml idishga qaynatilgan suv qo‘shiladi va kuniga ikki mahal bir choy qoshiqchadan ichiladi. Siydk ajralishi kuchaytiradi qon tomirlarni kengaytirib qonni suyultiradi. Bundan tashqari oyoq va bog‘imlardagi og‘riganda tayyorlangan damlamsini suvini surtiladi. Yani dastlab damlama qoyiladigan joy yaxshilabsovunlab yoki salvetka sochiqda artilib teri teshikchalari ochiladi so‘ngra damlama surtiladi. Surtilgan joy ochiq havoda qurutilib ochiq holda qoladi(malum vaqt). Tayyorlangan damlama +5 C gacha joyda 2 oygacha saqlash mumkin yoki oz miqdordagisini bir marta foydalangan afzal. Ortiqcha miqdori yani dozadan oshib ketsa, jigar va buyraklar ish faoliyatiga ziyon yetkazishi mumkin. Shuning uchun iste’moldan oldin shifokor bilan maslahatlashib ko‘rish afzal.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Toshkent Farmasevtika instituti “Tarkibida yurak glikazidlari saqlovchi dorivor o‘simliklar va mahsulotlar va tarkibida saponinlar saqlovchi dorivor o‘simliklar va mahsulotlar” o‘quv-uslubiy qo‘llanma (28-29-betlar)
2. Kostova I, Dinchev D. Saponins in Tribulus terrestris - chemistry and bioactivity. Phytochem. Rev, 2005; 4: 111-137. [Kostova I, Dinchev D. Tribulus terrastrisdagи saponinlar-kimyoviy va bioaktiv moddalar qatori, 2005;4:111-137.]
3. M.Nabiiev. Shifobaxsh giyohlar. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1980-yil
4. S.M.Mustafayev. Botanika. Toshkent: “o‘zbekiston” 2002
5. X.X.Xolmatov, Z.H.Xabibov o‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari. Toshkent “Meditina” nashriyoti 1976-yil
6. M.Nabiiev, V.Shalnev, A.Ibrohimov Shifobaxsh ne’matlar Toshkent, “Meditina” nashriyoti 1989-yil
7. Xujaev V.U. Turg'unov K.K. Toshxodjaev B. Aripova S.F. Arundo donaksining alkaloidlari. XIV. N-metil-tetrahidro-b-karbolinning kristalli va molekulyar tuzilishi 2003.226-227 Tabiiy birikmalar kimyosi
8. www.chemistry.ru
9. A.P. Orexov. Ximiya alkoloidov. M., 1953 g.
10. Dj. Qurbanov., I.M. Saytbaeva. Vestnik KK Fan, UzSSR, №2 1974g.
11. S.Yu. Yunusov, Alkolidi. Tashkent, 1974
12. F.I.Ivanov. Dikorastushie lekarstvennie rasteniya Uzbekistana. Tashkent, 1949y
13. Kimyo va kimyo texnologiyasi «3» 2010 yil
14. Shaxidoyatov X.M. Xinazalini - 4; ix biologicheskix aktivnost» Tashkent Fan, 1988.
15. Kuryazov Sh., Muxammedov N.S., Shoxidoyatov X.M , XPS 2008, 3